



SAVDO TIZIMINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON TIJORATNING O'RNI

PhD Maxmatqulov G'olibjon

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

ORCID: 0000-0003-3717-172X

golibmaxmatqulov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda elektron tijoratning o'rni va savdo xizmatlarini rivojlantirishda elektron tijoratning ahamiyati tahlil qilinib, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanishning dolzarbligi, shuningdek, elektron tijoratni rivojlantirishda uchrayotgan muammolar va ularning yechimlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, onlayn do'kon, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, internet, rivojlangan davlatlar, sotuvchi va xaridor.

РОЛЬ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛИ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ТОРГОВОЙ СИСТЕМЫ

PhD Махматкулов Голибжан

Университет экономики и педагогики

Аннотация. В статье анализируется роль электронной коммерции в Узбекистане и значение электронной коммерции в развитии торговых услуг, актуальность использования опыта развитых стран, а также проблемы, возникающие при развитии электронной коммерции, и пути их решения.

Ключевые слова: электронная коммерция, интернет-магазин, информационно-коммуникационные технологии, интернет, развитые страны, продавец и покупатель.

THE ROLE OF ELECTRONIC COMMERCE IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE TRADING SYSTEM

PhD Makhmatkulov Golibjon

University of Economics and Pedagogy

Abstract. The article analyzes the role of e-commerce in Uzbekistan and the importance of e-commerce in the development of trade services, the relevance of using the experience of developed countries, as well as the problems arising in the development of e-commerce and ways to solve them.

Keywords: e-commerce, online store, information and communication technologies, Internet, developed countries, seller and buyer.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish va savdo tizimini modernizatsiya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, savdo munosabatlarini erkinlashtirish hamda zamonaviy savdo shakllarini joriy etish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash muhim vazifa sifatida belgilangan.

Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda elektron tijoratni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda savdo tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, elektron savdo platformalarini qo'llab-quvvatlash, onlayn to'lov va logistika infratuzilmasini takomillashtirish orqali savdo samaradorligini oshirish zarurligi alohida ta'kidlangan. Mazkur hujjatlarda elektron tijorat nafaqat savdo hajmini oshiruvchi omil, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi, tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratuvchi strategik vosita sifatida e'tirof etiladi (Qaror, 2020).

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida savdo tizimini barqaror rivojlantirishda elektron tijoratning o'rni, uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqotchilar Kotler va Keller (2019) elektron tijoratni zamonaviy marketing tizimining ajralmas qismi sifatida baholab, uning iste'molchilar bilan bevosita va tezkor aloqani ta'minlashdagi ahamiyatini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, elektron savdo platformalari korxonalarga bozor talabiga moslashuvchan javob berish va xarajatlarni optimallashtirish imkonini yaratadi.

Porterning (2008) raqobat ustunligi nazariyasiga tayangan holda olib borilgan tadqiqotlarda elektron tijorat korxonalarining qiymat zanjirini takomillashtirish, logistika va ta'minot tizimlarini optimallashtirish orqali savdo tizimining umumiy samaradorligini oshirishi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, UNCTAD va OECD tadqiqotlarida elektron tijoratning barqaror rivojlanishga ta'siri global miqyosda tahlil qilinib, u kichik va o'rta biznes subyektlarining bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida e'tirof etiladi.

Jung va Hanlar (2018) elektron tijoratning rivojlanish darajasini baholashda yagona universal yondashuv mavjud emasligini, baholash mezonlari davlatlar yoki hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, raqamli infratuzilma, institutsional muhit va iste'molchilar xulq-atvoriga bog'liq holda farqlanishini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqotlarida elektron tijoratni baholashda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish darajasi va normativ-huquqiy muhitni hisobga olish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Abdukarimov (2011) ning "Savdoda bozor mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llari (Samarqand viloyati misolida)" mavzusidagi dissertatsiya ishi hududiy savdo tizimida bozor mexanizmlarining amal qilish xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda savdo sohasining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, bozor infratuzilmasining holati hamda savdo subyektlari faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda savdo tizimini barqaror rivojlantirishda elektron tijoratning o'rnini ilmiy asosda tahlil qilish maqsadida kompleks va tizimli yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy tahlil usullarining o'zaro uyg'unligiga asoslanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Respublikamizda iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarini erkinlashtirish jarayoni izchillik bilan amalga oshirilmoqda hamda iqtisodiy islohotlarni yanada

chuqurlashtirish, elektron tijoratni rivojlantirish ustuvor yo'nalish qilib belgilangan. Elektron tijorat tushunchasi faqatgina biz biladigan elektron vositalar orqali savdo-sotiq faoliyatini bildirmaydi. Bu tushunchaga yana tovar va xizmatlarga talabni yaratish, savdo amalga oshirilgandan so'ng mijozlarga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish, hamkorlar orasida o'zaro harakatlarni yengillashtirishlar ham kiradi.

Elektron tijoratda davlat, xom-ashyo yetkazib beruvchilar, sotuvchilar, iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar ishtirok etishi mumkin. Elektron tijorat korporativ, internet, va tijorat tarmoqlari ichida amalga oshiriladi. Internet elektron tijoratning butun dunyoda tarqalishi uchun qulay zamin yaratgan bo'lsada, elektron tijorat rivojlanishining axborot texnologiyalari nuqtai nazaridan bu vosita optimallik o'rnini egallab olmaydi. Biroq aynan internet elektron tijorat rivojlanishiga katta turtki bo'ldi va nafaqat katta korporatsiyalar, balki kichik va o'rta tadbirkorlarga va alohida shaxslarga xam ushbu tijoratning bevosita ishtirokchisiga aylanish imkonini berdi. Natijada mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yuqori darajada raqamlashtirildi, internetga ulanish tezligi mutassil ravishda o'sib bordi va ulardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratildi. Zero, xorijiy mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, elektron tijoratning rivojlanishiga internetdan foydalanuvchilar soni aholining 20-25 foizini tashkil etganda erishish mumkin. "Elektron tijoratni amalga oshirishda to'lovlarni o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hukumat qarorining qabul qilinishi bank mijozlariga masofadan turib xizmat ko'rsatishni rivojlantirishni xam ko'zda tutadi. Ma'lumki, elektron tijoratning texnologik asosini axborot kommunikatsiya texnologiyalari tashkil etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizni raqamlashtirish darajasi yuz foizni tashkil etib, yil sayin tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarning kompyuter bilan ta'minlanganlik darajasi, internet tarmog'ida abonentlar soni, shahar va qishloqlarimizning umumiy internet qamrovi oshib bormoqda, so'zsiz bu ijobiy tendensiya. Biroq, tahliliy ma'lumotlar internet orqali elektron tijorat tizimidan foydalangan holda tovarlarni xarid qilish, xizmatlar ko'rsatish darajasi, yaratilgan texnologik imkoniyatlar bilan undan tijorat ishlarida foydalanish o'rtasida keskin tafofut borligidan darak bermoqda. Elektron tijoratning maqsadi axborot tizimida axborotni tezkor aylanishini, umumiy foydalanishdagi tarmoqlar orqali tranzaksiyalarni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgani bois, uning istiqboli biznes subyektlari tomonidan xaridorlarga ishonchli va kafolatlangan xizmatlarini ko'rsata olishiga bevosita bog'liqdir.

1-jadval

Internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni, jami (hududlar kesimida)

Klassifikator	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	19981	22987,2	26723,6	30061	32138,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1071,9	1234,2	1346,6	1505,1	1640,9
Andijon viloyati	1484,2	1790,6	2019,8	2292,7	2448,2
Buxoro viloyati	1011,2	1204,5	1383	1519,4	1677,8
Jizzax viloyati	667,2	794,1	895,9	1006,9	1129,7
Qashqadaryo viloyati	1440,9	1696,2	1905,5	2133,3	2377,7
Navoiy viloyati	647,1	761,8	876,4	946,3	1047,9
Namangan viloyati	1379,5	1637	1863,9	2036,9	2278,1
Samarqand viloyati	1795,4	2132,5	2407,4	2706,1	3055,6
Surxondaryo viloyati	1151,5	1323,5	1538,2	1702,1	1871,5
Sirdaryo viloyati	505,7	595,4	673	749,3	794,8
Toshkent viloyati	1255,2	1483,8	1688,8	1954,1	2122,1
Farg'ona viloyati	1937,4	2872,3	3411,7	3752,3	3633,2
Xorazm viloyati	1012,9	1185,9	1328,4	1482,3	1628
Toshkent shahri	4620,9	4275,4	5385	6274,1	6433,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi

Bundan tashqari, boshqa faktorlar, ya'ni mamlakat iqtisodiyoti yuksakligi, fuqarolarning daromati oshib borishi, qolaversa, kishi vaqtni qiymat bilan bog'lab, o'z vaqtini pul va tovar singari baholay olishiga ham bog'liq holdir.

Shunday ekan, elektron tijorat bozorini rivojlantirish masalasi AKT imkoniyatlaridan samarali foydalanib davlat va biznes hamkorligi, asosan, biznes subyektlari faolligi bog'liq holdir. Jamoatchilik o'rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borish (TV-R, aksiyalar), soha uchun axborot texnologiyalari va tijorat ishlaridan bohabar mutaxassilarni (IT-tijoratchi) tayyorlash, reklama, marketing ishlari sifatini oshirish, internet-magazinlar, internet-vitrinalar, tovarlarni xaridorlarga yetkazib beruvchi kuryerlik xizmatlari tashkil etish, muhim masalalardan biri bo'lmish, biznes tomonidan tijorat ishlarida axborot xavfsiligini ta'minlab va shu orqali xaridorlarga ishonchi va kafolatlangan xizmatlarni taklif etilishi va boshqa jihatlar soha rivojida pozitiv to'rtki bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda Respublikamiz bo'yicha internetga ulangan abonentlar soni quyidagi jadvalimizda keltirildi.

Elektron tijorat rivojini belgilovchi, xaridorlar ishonchini mustahkamlovchi faktorlardan biri axborot xavfsizligi masalasi hisoblanadi. Aynan shu boisdan, mazkur qonunda axborot himoyasi axborot xavfsizligi masalalariga oid normalar, ya'ni elektron hujjat va elektron xabarlarini mazmunini, ulardan foydalanish tartibini o'zgartirmaslik, uchinchi shaxslarga yubormaslik, shaxsga doir ma'lumotlarni ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish choralarini ta'minlash, shu jumladan, huquqiy oqibatlar uchun javobgarlik kabi normalari ham qonunda mustahkamlandi.

2-jadval

Elektron tijorat va an'anaviy savdoning farqlari

T/r	Ko'rsatkich	Elektron tijorat	An'anaviy savdo
1	Savdo joyi	Internet tarmog'i orqali onlayn amalga oshiriladi	Do'kon, bozor yoki savdo markazlarida amalga oshiriladi
2	Vaqt omili	24/7 rejimida, istalgan vaqtda savdo qilish mumkin	Ish vaqti bilan cheklangan
3	Xaridor bilan aloqa shakli	Virtual (elektron pochta, chat, onlayn platforma) orqali	Bevosita yuzma-yuz muloqot orqali
4	To'lov tizimi	Elektron to'lovlar (bank kartasi, Payme, Click, PayPal va boshqalar) orqali amalga oshiriladi	Naqd pul yoki POS-terminal orqali to'lanadi
5	Mahsulotni yetkazib berish	Kuryer, pochta yoki logistika xizmatlari orqali yetkaziladi	Xaridor mahsulotni o'zi olib ketadi
6	Reklama va marketing	Internet reklama, ijtimoiy tarmoqlar, SEO, bannerlar orqali	An'anaviy reklama (TV, radio, banner, bosma nashrlar) orqali
7	Bozor hajmi	Global miqyosda (chegara yo'q)	Mahalliy yoki hududiy miqyosda cheklangan
8	Sarflar (xarajatlar)	Ijara va ishchi kuchi xarajatlari kam	Do'kon ijarasi, kommunal to'lovlar, ko'p xodimlar zarur
9	Ma'lumot almashinuvi	Tezkor, avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazasi orqali	Qo'lda, sekin, ko'proq hujjatlashtirish talab etiladi
10	Xavfsizlik va ishonchlilik	Kiberxavfsizlik choralari bilan himoyalangan, ammo firibgarlik xavfi mavjud	Fizik xavfsizlik yuqori, ammo cheklangan miqyosda

Xaridorlar va sotuvchi-tadbirkorlik subyektlari uchun ham yangilik va qulaylik keltiruvchi qonundagi normalardan biri bu jismoniy shaxslar uchun elektron hujjatlarda elektron raqamli imzodan foydalanish bo'yicha qat'iy talab bekor qilinib, jismoniy shaxslarga elektron raqamli imzoning bir martalik identifikatoridan foydalanishga ruxsat etilganidir. Elektron tijorat ishtirokchisi bo'lmish jismoniy shaxsga akseptni elektron xabar tarzida

amalgama oshirish huquqini beruvchi progressiv norma kiritilishi nafaqat xaridor-fuqarolarga qulaylik bo'lib, ikkinchi tomondan, tovar sotilishi munosabati bilan sotuvchi-tadbirkorga ham ulkan iqtisodiy samara keltiradi, tovar va pul aylanmasiga ijobiy ta'sir qilib, qolaversa soha rivojiga jiddiy turtki bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Elektron tijoratning maqsadi axborot tizimida axborotni tezkor aylanishini, umumiy foydalanishdagi tarmoqlar orqali tranzaksiyalarni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgani bois, uning istiqboli biznes subyektlari tomonidan xaridorlarga ishonchli va kafolatlangan xizmatlarini ko'rsata olishiga bevosita bog'liqdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar aniqlandik elektron tijoratning paydo bo'lishi va uning mohiyatyoritish, elektron tijoratning rivojlanishida bozorining strukturasi o'rni o'rganish, iqtisodiyotda elektron tijorat sistemasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganish, elektron tijorat rivojlanishining holati tahlili etish kabi vazifalarni xal etish kerak.

O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasida muhim o'rin tutadi. Muammolarni bosqichma-bosqich hal etish orqali ichki bozor raqobatbardoshligi oshadi, eksport imkoniyatlari kengayadi va aholi uchun qulay xizmatlar yaratiladi. Shu sababli, elektron tijorat sohasiga investitsiyalarni jalb qilish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va qonunchilikni takomillashtirish strategik vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Abdukarimov F.B. (2011) Savdoda bozor mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llari (Samarqand viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand: SamISI, 156 b.

Jung, B., & Hanler, C. (2018). Measuring e-commerce development: Methodological approaches and cross-country differences. *electronic commerce research and applications*, 29, 1–12.

Kh, G. (2022). Makhmatkulov. *Econometric modeling of innovative activities of trading enterprises in a healthy competitive environment. Экономика и предпринимательство*, 8, 144.

Kotler P., Keller K. (2019) *Marketing Management*. – Pearson Education.

Maxmatqulov, G. X. (2024). SAVDO SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 101–105. Retrieved from <https://sjii.es/index.php/journal/article/view/76>.

Maxmatqulov, G. O. (2022). A complex systemic issue of the development of the network of trade services. *Development and innovations in science*, 1(16), 10-13.

Maxmatqulov, G. X. (2023). Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning zamonaviy uslubiy yondoshuvlari. *Innovative Development in Educational Activities*, 2 (9), 378–386.

Maxmatqulov, G. X. Raqamli transformatsiyaning savdo xizmatlarida urni. *Innovation in the modern education system* 5 (45), 122-131

Porter M.E. (2008) *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. – Free Press.

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 05-oktyabrda "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 6079-sonli qarori.

Xolmamatov D.X. (2021) Ulgurji savdoda marketing logistikasini rivojlantirish yo'llari. "Iqtisodiyot vainnovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali. No 3, may-iyun

Maxmatqulov G.X. (2025) Chakana savdo tizimini rivojlantirishda elektron tijorat va internet-do'konlarning ahamiyati. 402-406 b.

Махматқулов Г., Сайфуллаев С., & Бобомирзаев А. (2024). ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОСНОВНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ ТОРГОВЫХ УСЛУГ. Экономическое развитие и анализ, 2(4), 139–149. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/45201>.

Махматқулов, Ғ. (2022). Аҳолига савдо хизматларини инновацион ривожлантириш салоҳиятини баҳолашда тренд моделларини танлаш мезонлари (қашқадарё вилояти мисолида). *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(4), 381-386.

Махматқулов, Ғ. (2023). Савдо корхоналарининг инновацион фаолиятини эконометрик моделлаштириш. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(6), 33-38.